



TALABALARDA REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Vapayeva Fazilat Shuhratovna

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi
talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7758573>

ARTICLE INFO

Received: 22th March 2023

Accepted: 20th March 2023

Online: 21th March 2023

KEY WORDS

Tarbiyaviy munosabatlar,
refleksiv ko'nikmalar, refleksiv
natijalat, pedagogik
qobiliyatlar.

ABSTRACT

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi shaxsini muvaffaqiyatli kasbiy shakllanishi, o'zi va o'z kasbiy faoliyatiga adekvat baho berishi, ya'ni uni qay darajada kasbiy faoliyatining barcha muhim ahamiyatli jihatlarini refleksiyalash refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish vositalariga bog'liq.

KIRISH

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalar rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish mexanizmlari fan-texnika yutuqlariga asoslangan eng samarali texnologiyalar va o'qituvchilar o'z faoliyatida afzal bilgan hamda ilmiy asoslangan barcha vositalardan tashkil topgan tizim sifatida qaraladi. Bunda bir tomondan refleksiv ko'nikmalar rivojlantirish jarayonlaridagi hamkorlikdagi faoliyat, boshqa tomondan tarbiyaviy munosabatlar refleksiv ko'nikmalar rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalar rivojlantirish jarayonlarida o'qituvchilar bilan talabalarning hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, ya'ni sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini shakllantirish tarbiyaviy munosabatlar asosida amalga oshiriladi va mazkur jarayonda refleksiv ko'nikmalar rivojlanib boradi. Tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining rivojlanishi refleksiv ta'limiy muhitda o'qituvchi va talabalarning hamkorlikdagi faoliyati samaradorligi hamda innovatsion o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq bo'ladi.

MUHOKAMA

Refleksiv ko'nikmalarni samarali rivojlanishiga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining sub'ektiv dunyoqarashi va dunyoni idrok etishi orqali erishish mumkin. Refleksiv ko'nikmalar boshqa kasb sifatlariga nisbatan deterministik (ob'ektiv haqiqat va hodisalarni aloqasi va o'zaro bog'liqligi haqidagi falsafiy ta'limot) o'rinni egallaydi, shuning uchun pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, birinchi bosqichdanoq (kurs) bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida refleksiv ko'nikmalar maxsus va tartibli ravishda rivojlanishi zarur. Bu erda refleksiyaning ikkita shaklini ajratish muhim:



ta'lim olish shaklidagi refleksiya («talaba» o'rnida) hamda ta'limni tashkil qilish shaklidagi refleksiya («pedagog» o'rnida).

Oliy ta'limda refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini tashkil qilishning quyidagi bosqichlari mavjud:

1. Fanlar bo'yicha (refleksiyagacha) bo'lgan faoliyatni to'xtatish.
2. Bajarilgan harakatlarning ketma-ketligini tiklash.
3. Harakatlarning samaradorligi va unumdorligi, belgilangan vazifalarga muvofiqligi nuqtai nazaridan ularni (harakatlarni) ketma-ketligini o'rganish. Refleksiv materiallarni tahlil qilish parametrlari (o'lchami) o'qituvchi tomonidan tavsiya qilinadi yoki talabalar tomonidan o'z maqsadlari asosida belgilanadi.
4. Refleksiya natijalarini aniqlash. Bunday natijalarni bir necha turga ajratish mumkin:
 - faoliyatning mahsuli – g'oyalar, takliflar, aniqlangan qonuniyatlar, berilgan savollarga javoblar;
 - faoliyat mobaynida o'rganilgan yoki yaratilgan (kashf etilgan) usullar;
 - kelgusi faoliyatni rejalashtirish.
5. Keyingi fanlar bo'yicha tahminlarni amaliyotda tekshirish.

Refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish jarayonini samaradorligiga ta'sir etuvchi muhim omil – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining yoshi va boshqa fazilatlariga javob beruvchi shakllarni ko'pligi.

Agar talaba mustaqil ravishda refleksiv jarayonni amalga oshira olmasa, unga bu vaziyatda tashkilotchi – o'qituvchi kerak bo'ladi, uning maqsadi talabani refleksiv faoliyatini amalga oshirish, o'z imkoniyatlari va kamchiliklarini topishda yordam berishdir. Buning asosida esa ta'limiy (kasbiy) vazifalari belgilanadi. Ta'limiy refleksiyasining qo'yidagi shakllari mavjud – guruhviy shakllar (jamoaviy o'quv mashg'ulotlar) va individual (biror-bir holatni og'zaki muhokama qilish, yozma so'rovnoma to'ldirish).[2]

NATIJA

Refleksiv qobiliyatlar ko'pincha o'yin faoliyati orqali rivojlantiriladi. Tadqiqotchilar o'yinni amaliy mehnat faoliyati analogi sifatida tushunadilar. Ta'lim nazariyasida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirishda o'yindan foydalanish A.A.Verbitskiy tomonidan ishlab chiqilgan. Ta'limiy va tarbiyaviy o'yinlardan foydalanish predmeti harakat-modellar hisoblangan o'yinni inson faoliyati sifati tushunishga asoslanadi, mehnat modellari bilan ishbilarmonlik o'yinlarini va o'zini namoyon etish modellari bilan (psixodramalar) – muloqot bilan rol o'yinlar (sotsiodramalar) hosil qiladi

Talabalarda rivojlangan refleksiv ko'nikmalarni tashxislash uchun o'qituvchi quyidagi usullardan foydalanishi mumkin: kuzatuv, savol-javob va faoliyat mahsullarini tahlil qilish.

Refleksiv pedagogika muallifi M.Uolles (Wallase M.) [1] fikriga tayangan holda pedagogik oliy o'quv yurtlaridagi mashg'ulotlarda shakllanayotgan kompetentsiyalar faqatgina tizimli tahlil ob'ekti bo'lgan taqdiridagina bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchining professional o'sish manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin deb ayta olamiz. Talabalarning refleksiyalanmagan o'quv faoliyati foydasiz sanaladi va vaqt o'tgach professional rivojlanishga emas, balki professional stagnatsiya (kasbiy turg'unlik) ga olib keladi. Shu sababli pedagogik oliy ta'lim muassasalarining boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishi talabalari "Pedagogik mahorat" fanini o'rganish jarayonida nafaqat yangi bilimlarga ega bo'ladi, balki



o'zlarini refleksiv qo'nikmalarini rivojlantiradi, refleksiv ko'nikmalarni rivojlanish darajasi va sifati o'qituvchilarining kasbiy mahoratiga bog'liq sanaladi.

Ta'kidlash joizki, S.Yu.Stepanov ilmiy ishlariga asoslanib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining refleksiv ko'nikmalarini rivojlantirish uchun, minimal hajmda bo'lsa ham, shaxsiy amaliy professional pedagogik faoliyat tajribasi zarur deb ayta olamiz. Shunga ko'ra, bizning fikrimizcha, boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-pedagogik tayyorgarlik bosqichida refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish vositalarini izlash istiqbolli va samarali hisoblanadi [3].

XULOSA

Talabalarining refleksiv faoliyatini kuzatish quyidagilarni: o'quv materiallarini o'rganishda, ularda paydo bo'ladigan didaktik qiyinchiliklarni engib o'tishni, refleksiyalash jarayonida ular bilan sodir bo'lgan eng asosiy va muhim hodisalarni ajratishni, faoliyat maqsadlari va natijalarini muvofiqlikka keltirishni, shuningdek, baholash va o'ziga o'zi baho berish mezonlarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Talabalar muntazam ravishda o'z refleksiv ko'nikmalaridan foydalanishi mumkin, masalan, og'zaki mulohazalar, so'rov yoki kuzatuv ko'rinishida amalga oshiradi. Mazkur holda ham tashqi, ham ichki kuzatishdan foydalanish kerak. Tashqi kuzatish xulqni nazorat qilish uchun zarur, u o'qituvchi tomonidan olib borilishi kerak. Ichki kuzatish yoki o'z-o'zini kuzatish, talabalarining o'zi tomonidan olib borilib, o'z faoliyati haqida hisobot berishda qayd etiladi.

References:

1. Wallace, M. Action research: How to do it / M. Wallace // Paper presented at the 2nd international conference of the Malaysian English language teaching association, 24-27 May 2007 (mimeo)
2. Сластенин В.А. Педагогика: Уч. Пособие для студентов пед. Учеб. Заведений. – М.: Школа-Пресс, 1998. – 512с.
3. Stepanov, S.Yu. Refleksivnaya praktika razvitiya cheloveka i organizatsiy / S.Yu.Stepanov. — М.: Nauka, 2000. — 174 s.